

TURSUNOV JAVOHIRBEK

TURSUNOV JAVOHIRBEK

HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILI

ANDIJON – 2018

O`ZBEK TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

O`zbek tili turkiy tillar guruhiga kiruvchi yirik tillardan biridir. O`zbek (turkiy) tilida yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar **VI–VII** asrlarga tegishli bo`lib, umumturk adabiy tili sifatida shakllandi.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko`pchilik olimlar bir necha davrlarga bo`ladilar.

Turkiy til davrlari	O`zbek tili bosqichlari	Davrlar
Oltoy davri		
Eng qadimgi turk davri	Qadimgi turkiy til	X asrgacha bo`lgan davr
Qadimgi turk davri	Eski turkiy til	X asrdan – XI-XII asrgacha
O`rta turk davri	Eski o`zbek adabiy tili	XI-XII asrdan – XX asr boshlarigacha
	Hozirgi o`zbek adabiy tili	XX asr boshidan hozirgi kungacha

QADIMGI TURKIY TIL

Jamiyat oilalardan tashkil topganidek, tillar ham turli-tuman oilalarga bo`linadi. Til oilalari shu oilaga asos bo`lgan til nomi bilan yuritiladi. O`zbek, uyg`ur, qirg`iz, qozoq kabi til guruhlarining turkiy til deyilishiga sabab shuki, ularning hammasi *qadimgi turkiy til* dan ajralib chiqqan. Demak, *hozirgi barcha turkiy tillar (o`zbek, uyg`ur, qirg`iz, qozoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, xakas, yoqut va boshq.) uchun qadimgi turkiy til umumiy til (bobo til) sanaladi.*

Mutaxassislarining fikricha, turkiy tillar qadimda *mo`g`il va tungus-manjur* tillari bilan birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til *oltoy tili* deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan. Afsuski, bu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, lekin qadimgi turkiy til davriga oid bir qancha yozma manbalarga egamiz. *Urxun-enasoy, uyg`ur (qisman moniy), sug`d yozuvlari* shular jumlasidandir. *Mazkur yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi.*

Urxun-enasoy (Kultigin va Bilga xoqon) yodgorligi haqida		
1.	<i>Urxun-enasoy yozuvi haqidagi dastlabki xabarni bergan tadqiqotchilar</i>	<i>N.K. Vidzen, S.U. Remezov, I. Tabbet-Stralenberg, D.G. Messersmidt, M.A. Kastren</i>
2.	<i>Urxun-enasoy yodgorligini topgan shaxs</i>	<i>N.M. Yadrinsev (1889-yil, Mongoliyaning Qoraqurum shahri xarobalaridan)</i>
3.	<i>Urxun-enasoy yodgorligidagi sirli yozuvni o`qishga kirishgan olimlar</i>	<i>V.V. Radlov, V. Tomsen, P.M. Melioranskiy</i>
4.	<i>Urxun-enasoy yodgorligidagi yozuvlar sirini ochgan olim(lar)</i>	<i>V. Tomsen, V.V. Radlov (10 ta harf) (1893-yil 15-noyabr)</i>
5.	Hozirda Urxun-enasoy yodgorligining 700 ga yaqin namunalari fanga ma`lum.	

Qadimgi turkiy tilga oid so`zlar					
1.	<i>Budun</i>	<i>Xalq</i>	6.	<i>Ko`ch</i>	<i>Urug`, zot</i>
2.	<i>Bilig</i>	<i>Bilim</i>	7.	<i>O`kush</i>	<i>Ko`p,</i>
3.	<i>Ingek</i>	<i>Sigir</i>	8.	<i>O`z</i>	<i>Jon, vujud</i>
4.	<i>Yag`i</i>	<i>Yov, dushman</i>	9.	<i>Art</i>	<i>Tepa, dovon</i>
5.	<i>Batsiq</i>	<i>G`arb</i>	10.	<i>Erik</i>	<i>Mard, botir, erkin</i>

Qadimgi turkiy tilga oid matndan parchalar		
1.	<i>Biz qo`rqmadimiz, sungusdimiz</i>	<i>Biz qo`rqmadik, jang qildik</i>
2.	<i>Neke qo`rqubmiz?</i>	<i>Nimadan qo`rqamiz?</i>
3.	<i>Turk budun yoq bolmazun! Bodun bolsun!</i>	<i>Turk xalqi yo`q bo`lmasin! Xalq bo`lsin!</i>

ESKI TURKIY TIL

Eramizning XI asrlaridan boshlab qorluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi o'zlarining davlatlarini tashkil etdi. Qoraxoniylar Sirdaryo havzalari hamda somoniylarga qarashli bo'lgan Buxoro va Samarqandlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qoraxoniylar davlati mayda uyg'ur qabilalarini hamda Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi turk-eron aholisi yashaydigan madaniy yerlarni o'ziga bo'ysundirgan holda X asr oxirlarida islom dinini qabul qilib, Markaziy Osiyoning eng madaniy turk davlatiga aylandi.

Qoraxoniylar tomonidan ikki rivojlangan madaniy markazning *sharqda uyg'ur madaniyatining va g'arbda, Markaziy Osiyoda, turk-eron madaniyatining birlashtirilishi uning yozma madaniyatida ham o'z ifodasini topdi.* Qoraxoniylar davrining eng asosiy *adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'otit turk»* nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o'sha davrdagi *fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari* haqida to'la ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga, *turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalari aks ettirgan yirik badiiy asardir.*

Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda *qiyosiy-tarixiy* tilshunoslik deb nomlanuvchi tilshunoslik yo'nalishiga asos soldi.

Qoraxoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi — bu *Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»)* asaridir. Bu asar yirik *badiiy-tarbiyaviy* asar bo'lib, turkiy adabiyot tarixida juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, *«Muqaddimat ul-adab»*, *Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari*, *Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»* asarlari shu davrning eng buyuk adabiy durdonalaridir.

Mahmud Koshg'ariy *Chindan tortib to Runga* qadar yashagan turkiy qabilalar haqida shunday deb yozadi: — Turklar aslida *yigirma* qabiladir. Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug'lari bor. Men bulardan asosiylarini -ona urug'larini yozdim, shoxobchalarini tashladim.

«Devon-u lug'otit turk»dagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda *bajanak, qipchoq, o'g'uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'raq, uyg'ur* kabi turkiy qabilalar tili umumturkiy adabiy tilni tashkil qilgan. Ulardan eng yengili – o'g'iz, eng to'g'risi, yaxshisi – yag'mo, tuxsi, eng ochiq, ravon til – haqoniy o'lkasida o'lkasida yashovchilarning tili” ekanligi ta'kidlangan.

1.	“Devon-u lug'otit turk” dan olingan parchalar	
	<i>Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig'</i>	<i>Tirishqoqning labi yog'lig', erinchoq, dangasaning boshi qonlik.</i>
	<i>Emgak ekinda qolmas.</i>	<i>Mehnat bekorga ketmaydi.</i>
	<i>O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik</i>	<i>Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq.</i>
	<i>Uma kelsa, qut kelur</i>	<i>Mehmon kelsa, baraka keladi</i>
	<i>Erdamsizdan qut chertilur</i>	<i>Dangasadan baxt ketadi</i>
	<i>Kichikda qatig'lansa, ulg'azu sevnur</i>	<i>Yoshlikda mashaqqat cheksa, ulg'ayganda sevinadi</i>
	<i>Erdam boshi til</i>	<i>Odobning boshi til</i>
2.	“Qutadg'u bilig” dan olingan parchalar	
	<i>Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g, Ani er atag'il, necha o'gsa o'g. Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal, Yavuz ersa kas te, kichik ersa — o'g.</i>	<i>Qaysi odamda zehn va aql bo'lsa, Uni er atab, qancha bo'lsa-da maqta. Kishida aql, zehn, bilim mukammal bo'lsa, Yomon bo'lsa ham odam, kichik bo'lsa ham ulug', katta de.</i>
3.	“Hibat ul-haqoyiq” dan olingan parchalar	
	<i>Aya do'st, biliklik yizin izlagil, Qali so'zlasang so'z, bilib so'zlagil.</i>	<i>Ey do'st, bilimli kishi izidan yur, Agar so'zlasang, o'ylab so'zlagin</i>
	<i>Tiling bekta tutgil, tishing sinmasun, Qali chiqsa bekta, tishingni siyur.</i>	<i>Tilingni tiy, tishing sinmasin Agar tiymasang, u tishingni sindiradi</i>
	<i>Ko'ni bo'l, ko'ni qil, atin ko'ni, Ko'ni teyu bilsin xaloyiq seni.</i>	<i>To'g'ri bo'l, to'g'ri ish qil, to'g'ri deb atal, Odamlar seni to'g'ri deb bilsin.</i>

Eski turkiy tilga oid soʻzlar					
1.	<i>Koʻkramak</i>	<i>Naʼra tortmoq</i>	5.	<i>Elig</i>	<i>Hukmdor</i>
2.	<i>Sandilach</i>	<i>Saʼva</i>	6.	<i>Boʻgʻu</i>	<i>Dono</i>
3.	<i>Qirgʻilach</i>	<i>Qaldirgʻoch</i>	7.	<i>Al</i>	<i>Qizil</i>
4.	<i>Sandugʻach</i>	<i>Bulbul</i>	8.	<i>Koʻni</i>	<i>Toʻgʻri, rost, haqqoniy</i>

ESKI OʻZBEK TILI

Qoraxoniylar davri adabiy tili oʻzbek tilining shakllanishi uchun ham asos boʻldi. Bu davrdagi *ikki adabiy til anʼanasi sharqiy (qorluq-uygʻur) adabiy tili va gʻarbiy (qipchoq-oʻgʻuz) adabiy tili* oʻzbek tilining shakllanishida xizmat qildi.

Xususan, *gʻarbiy til anʼanasida yozilgan Qul Alining «Qissayi Yusuf» dostoni (1239-yil) hamda sharqiy til anʼanasida yozilgan Rabgʻuziyning «Qissasi Rabgʻuziy» (1309—1310) asarlari* oʻzbek adabiy tilining shakllangan davrini ifoda etuvchi badiiy asarlardir. **A. Borovkovning eʼtirof etishicha, «Tafsir» (XIII asr) tili eski oʻzbek tilining yorqin namunasi.**

«Oʻgʻuznoma», «Tafsir» (*Qurʼonning soʻzma-soʻz tarjimasi, izohlar, sharhlar, tushuntirishlar*), «Yusuf va Zulayho», «Meʼrojnomasi», *Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Guliston», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarlari* eski oʻzbek tilida yaratilgan dastlabki namunalar.

Arab, fors-tojik tillarga xos boʻlgan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar eski oʻzbek tiliga koʻplab oʻzlashdi. Bu davrda oʻzbek qabilalari boshqa qabilalarga nisbatan siyosiy hayotda yetakchilikni oʻz qoʻllariga olib boshladilar.

Oʻzbek atamasi tarixda ilk bor **XII asrda Rashididdinning «Moʻgʻillar tarixi» asarida** atoqli ot maʼnosida tilga olinadi. *Jaloliddin Manguberdining qoʻshin boshliqlaridan biri Oʻzbektoy deb atalgan.*

Oʻzbek degan soʻzning «oʻziga bek», «otliq qoʻshin», «sodda», «toʻgʻri», «insofli», «saxiy», «odamoxun», «diltortar», «suyukli» kabi maʼnolari ham mavjud. Oʻzbek atamasining unga qadar ishlatilgan *turk, sart, chigʻatoy* singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror boʻlib qolishi **Shayboniyxon** boshchiligidagi oʻzbek urugʻlarining Markaziy Osiyoda oʻtroqlashuvi, hokimiyatni oʻz qoʻllariga olishi bilan bogʻliq.

Oʻzbek tilining takomillashuvida *Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy* singari oʻnlab, yuzlab soʻz ustalari xizmat qilgan boʻlsalar, *Mavlono Alisher Navoiy* uning obroʻyini dunyoga tanitdi. *Navoiy davri va Navoiygacha boʻlgan davrda* oʻzbek tili *turk lafzi, turkiy til* nomi bilan yuritilgan. **XVI asrdan** oʻzbek urugʻlarining nomi butun xalqning nomiga aylanib ketdi. Shuningdek, oʻzbek tili moʻgʻillar bosqinidan soʻng shu yerga egalik qilgan *Chigʻatoy* nomi bilan, rus bosqini davrida esa ruslar tomonidan *sart tili* nomi bilan ham yuritilgan. Eski turkiy tildan ajralib to hozirgi oʻzbek tilining shakllanishigacha (XX asr boshlarigacha) boʻlgan oʻzbek tili *eski oʻzbek tili* deb nomlanadi.

Demak, eski oʻzbek tili XII—XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha boʻlgan oʻzbek tili tarixini oʻz ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni oʻzida mujassam etadi.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farogʻiy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat, Muhammad Aminxoʻja Muqimiylarning eski oʻzbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta. Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi. **U oʻzbek tilini xazina deb bildi.** Bu xazinani ilonlar va tikanlar oʻrab turganligini taʼkidladi. *Navoiy eski oʻzbek adabiy tilini ana shu «ilon»lardan va «tikan»lardan tozalab berdi.*

Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lugʻatayn» asaridan

Yana bir adolari borki, baʼzi alfozning soʻnggʻida «*ch, i*» «*ki*», «*chi*» lafzidir, orttururlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshaning izhori uchun; forsiyda yoʻqtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andogʻki, *qoʻrchi* va *suvchi* va *xizonachi* va *kerak-yarogʻchi* va *chavgonchi* va *nayzachi* va *shukurchi* va *yurtchi* va *shilonchi* va *axtachi* yoʻsunlugʻ koʻptur.

Hunar va peshada andogʻki, *qushchi* va *borschi* va *qoʻruqchi* va *tamgʻachi* va *jibachi* va yoʻrgʻachi va *halvochi* va *kemachi* va *qoʻychi*...

Eski o'zbek tiliga oid so'zlar					
1.	<i>Cherik</i>	<i>Askar</i>	6.	<i>Huvaydo</i>	<i>Aniq , ravshan</i>
2.	<i>Ev</i>	<i>Uy</i>	7.	<i>Kilk</i>	<i>Qamish</i>
3.	<i>Qopungda</i>	<i>Eshigingda</i>	8.	<i>Pesha</i>	<i>Kasb , hunar</i>
4.	<i>Ulus</i>	<i>El, xalq</i>	9.	<i>Bilmon</i>	<i>Bilmayman</i>
5.	<i>Butradi</i>	<i>Tarqaldi , ketdi</i>	10.	<i>Behbud</i>	<i>Sog'lomlik</i>

HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILI

Eski o'zbek adabiy tili *hozirgi o'zbek adabiy tilining vujudga kelishida* muhim bosqich bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek adabiy tilining uslublari ham shakllana bordi, o'zbek milliy tilida me'yorlashish jarayoni barqarorlashish bosqichiga kirdi. **Hozirgi o'zbek adabiy tili rivojlangan, ijtimoiy mavqeyi yuksalgan, sayqal topgan, fonetik va leksik-grammatik jihatdan me'yorlashgan milliy tildir.**

2-MAVZU. TURKIY TILLAR OILASI

Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, ularning miqdori **7000 ga yaqin.**

Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar **qarindosh**, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lmagan tillar esa **qarindosh bo'lmagan** tillar hisoblanadi. Masalan, **o'zbek, qirg'iz, qozoq, tatar, uyg'ur, boshqird, ozarbayjon, qorachoy-bolqar** kabi tillar qarindosh tillar sanaladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir **bobo tildan** kelib chiqqandir. Shuning uchun ham dunyo tillari qarindoshligiga ko'ra til oilalariga bo'linadi. Til oilalarining nomlari **bobo til** nomi bilan yuritiladi. Masalan, **slavyan tillari oilasi, german tillari oilasi, roman tillari oilasi, eroniy tillar oilasi, somiy tillari oilasi, turkiy tillar oilasi va boshqalar.** Bu til oilalarining har qaysisi o'z ichida yana kichik guruhlarga bo'linadi.

Turkiy til guruhlari	<i>Qipchoq tillari guruhi</i>	<i>Qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvaysh</i>
	<i>O'g'uz tillari guruhi</i>	<i>Ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari</i>
	<i>Qorluq tillar guruhi</i>	<i>O'zbek va uyg'ur tillari</i>

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillarning **qorluq** guruhiga mansubdir.

Turkiy tillar oilasida **30 ga yaqin** til bor. Bu tilda so'zlashuvchilar, asosan, **Osiyo**, shuningdek, **Yevropa, Amerika, Avstraliya** mintaqalarida istiqomat qilishadi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachoy-bolqar, qo'miq, no'g'ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash va boshqalar.

Turkiy tillar **agglutativ tillar** sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin qo'shiladi. Masalan: **litsey + dosh + lar + im + ga.**

Flektiv tillar	Agglutinativ tillar
Bir grammatik shakl orqali bir nechta grammatik ma'no anglatadi	Nechta grammatik ma'no bo'lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatik shakl qo'llaniladi.
Grammatik shakllarning chegarasini bir-biridan ajratib bo'lmaydi	Grammatik shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi
Grammatik ma'noning ko'payishi bilan, so'zning grammatik shakllari chapdan o'ngga qarab ham, o'ngdan chapga ham cho'zilib boradi.	Grammatik ma'noning ko'payishi bilan, so'zning grammatik shakllari ham chapdan o'ngga qarab cho'zilib boradi
Grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o'zgartiradi	Grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o'zgartirmaydi

Jahonning ko'zga ko'ringan yozuvchilari tomonidan ishlatilgan turkiy so'zlar miqdori					
1.	<i>Alisher Navoiy</i>	26035 ta	6.	<i>Migel de Servantes</i>	18000 dan ortiq
2.	<i>Aleksandr Pushkin</i>	21193 ta	7.	<i>Abdurahmon Jomiy</i>	17600 ta
3.	<i>Vilyam Shekspir</i>	20000 dan ortiq	8.	<i>Abdulla To'qay</i>	14000 dan ortiq

3-MAVZU. O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI

1988-yildan boshlab o'zbek ziyolilari matbuotda o'zlarining qator maqolalari bilan tilimiz haq-huquqini tiklash, uni davlat tiliga aylantirish muammosini ko'tarib chiqdilar. Bu masalaga bag'ishlangan bir qancha anjumanlar bo'lib o'tdi. Nihoyat, **1989-yilning 19-oktabr** kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi.

1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tili O'zbekistonning Davlat tili sifatida rasman e'lon qilindi. Buning natijasida o'zbek tili respublikamizda o'tkaziladigan oliy darajadagi davlat anjumanlarida ham qo'llaniladigan, davlatning rasmiy hujjatlari yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi. Ana shu nuqtayi nazardan bu qonunning tarixiy ahamiyati kattadir.

«Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilingandan ikki yil vaqt o'tgach, respublikamiz hayotida katta o'zgarish ro'y berdi. Ajdodlarimizning asriy orzusi ro'yobga chiqdi. Mustaqillik qo'lga kiritildi. Dunyoning bir yuz yigirmadan ortiq davlati mustaqil respublikamizni rasman e'tirof etdi va u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Qisqa muddat ichida respublikamizning jahon hamjamiyati o'rtasidagi obro'-e'tibori oshdi. O'zbek degan millat va uning milliy tili jahon jamoatchiligining diqqatini tortdi.

Ana shunday sharoitda mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonunning ko'p moddalari o'z kuchini yo'qotdi yoki tahrirtalab bo'lib qoldi. Shuning uchun ham amaldagi Qonunni isloh qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Natijada **1995-yilning 21-dekabr**ida O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisining IV sessiyasi** «Davlat tili haqida»gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi.

Yangi tahrirdagi Qonunning muhim jihati shundaki, unda o'zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi mavqeyi hisobga olindi. Bu qonun **24 modda**dan iborat bo'lib, uning **1-moddasida** asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyamizning **4- moddasida** ta'kidlanganidek: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir», – deb yozib qo'yilgan. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida tan olinar ekan, bu narsa respublika hududidagi boshqa tillarning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi. Qonunning **2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida** boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi. Bu esa yangi Qonunning naqadar xolis ekanligini ko'rsatadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
DAVLAT TILI HAQIDA
(*yangi tahrirda*)

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta‘minlanadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi, shu jumladan, unga hamma e‘tirof qildan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta‘minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta‘minlanadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda, boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda — boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimai takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radioeshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra – boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimai davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Til haqida bildirilgan fikrlar
I. G'ofurov
Til millatning birinchi haqqidir. Shu haq o'ksitilgan bo'lsa, demak, millat o'zini o'zi o'ksitib kelgandir.
A. Navoiy
Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.
K. G. Paustovskiy
O'z vataningga bo'lgan chinakam muhabbatini o'z tilingga bo'lgan muhabbatsiz tasavvur etish mumkin emas.

O'zbek xalqi haqida aytilgan fikrlar
«Jahon qomusiy lug'ati»
O'zbek — jahon xalqlari orasidan birinchilardan bo'lib, turkiy xalqlar o'rtasida esa eng oldin o'troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millatdir.
Abdurauf Fitrat
O'zbek o'g'lonlari botir bo'lur.
Chingiz Aytmatov
Qadimgi Gretsiya Yevropada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rin egallaydi.
I.A.Karimov
O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon: u yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa-da, daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom ma'noda bunyodkordir.
Herman Vamberining «Turkiy xalq» asarida
«O'zbek, degan so'z qaysi ma'noni bildiradi deganda, eng avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, bu so'z «o'z» va «bek» so'zlaridan iborat bo'lib, shulardan birinchisi «asl», «ajoyib», «tagi mustahkam», «sardor» ma'nolarini bildiradi. Demak, bu so'zning ma'nosi asl bekdir.
«O'zbek» degan nom ancha oldindan ma'lum bo'lib, «musulmoncha tarbiyalangan» degandek tushunilgan, ya'ni ular ... musulmon Osiyo madaniyatiga yo'l ochishgan; o'troq va asl dehqon; harbiy millat; savdoda og'ir, vazmin, sanoatda mo'tadil; ochiqko'ngil, mard, jiddiy, haqiqiy turkiy himmatga ega; sovuqqonlikni odob-axloq namunasi hisoblaydi... O'zbek o'ylabroq gapirishga moyil, u buni tabiiy deb biladi; sadoqatli va dovyurak; to'g'ri gapiradigan, ko'zga tik qaraydigan erkakni mukammallik namunasi deb biladi; davlat himoyasini o'z zimmasiga olgan; o'zbeklarning oilaviy munosabatlarini asl namuna hisoblasa bo'ladi; o'rta yoshga borib qolgan farzandlar ham o'z ota-onalariga juda hurmat-ehtiromda bo'lishadi; o'zi 30—40 yoshlarga borib qolgan o'g'il ham otasining bir qarashidayoq sergak tortadi va hech qachon otasi bor paytda birinchi o'tirmaydi; birinchi gapirmaydi; turkiy shevada gapiradilar; o'zbeklar xudojo'ylar va bolalardan shuni talab qilishadi; mug'ambirlik kamdan kam uchraydi; o'zbeklar yaxshi musulmondirlar; ashula va musiqani jon-dildan sevishadi...»

4-MAVZU. FONETIKA

Fikrimizni boshqalarga soʻzlash va yozish orqali bayon qilamiz. Soʻzlash va yozish orqali maʼlum fikr bayon qilishimiz *nutq* hisoblanadi. Nutq ikki yoʻl bilan amalga oshiriladi. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq *ogʻzaki nutq*, harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq esa *yozma nutq* sanaladi.

Nutqimizni boʻlaklarga ajratadigan boʻlsak, uning oxirgi boʻlinish nuqtasi **tovushlar** boʻladi. Masalan, *Oʻzbekiston — jannatmakon oʻlka* jumlasida *Oʻzbekiston, jannatmakon, oʻlka* soʻzlariga, bu soʻzlar, oʻz navbatida, *Oʻz-be-kis-ton, jan-nat-ma-kon, oʻl-ka* boʻgʻinlariga, boʻgʻinlar esa *oʻ-z-b-e-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n oʻ-l-k-a* singari tovushlarga boʻlinadi. Boʻlinishning oxirgi nuqtasi boʻlgan, *boshqa mayda boʻlaklarga boʻlish mumkin boʻlmagan nutq boʻlagi (akustik-artikulatsion birlik) tovush* hisoblanadi va u bilan bogʻliq hodisalar tilshunoslikning **fonetika** boʻlimida oʻrganiladi. Fonetika soʻzi esa yunoncha *phone* – «tovush» soʻzidan olingan.

Fonetika boʻlimida quyidagilar oʻrganiladi :

1. Nutq tovushlari;
2. Nutq aʼzolari;
3. Boʻgʻin;
4. Urgʻu;
5. Tovush oʻzgarishi hodisalari;
6. Ohang (intonatsiya).

NUTQIY FAOLIYAT

Inson doimo oʻzini qurshab turgan olamni bilishga intiladi. Kishilarning barcha faoliyati markaziy asab sistemasi yordamida boshqariladi. Olamni bilish jarayoni markaziy asab sistemasiga turli sezgi aʼzolarimiz (tana, taʼm-maza, koʻrish, eshitish kabi sezgi aʼzolari) yordamida uzatilgan axborot orqali amalga oshiriladi.

Tana, taʼm-maza, koʻrish, eshitish kabi sezgi aʼzolari orqali olamni bilish vositasi barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliy shakli sifatida ularga nisbatan yana bir qoʻshimcha bilish vositasiga — *nutq orqali bilish qobiliyatiga* ega. *Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos P. Pavlov birinchi signal sistemasi, ikkinchisini esa ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan.*

Koʻrinadiki, inson ikkinchi signal sistemasiga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat *Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini taʼkidlaganlar.*

Har bir shaxs maʼlum bir jamiyat vakili sanaladi. Jamiyat aʼzolari oʻzaro doimo aloqada boʻladilar. Biri obyektiv olamda oʻz sezgi aʼzolari orqali his etgan maʼlum narsa va hodisa haqida boshqalariga tovush toʻlqinlari (yozma nutqda esa harflar ketma-ketligi) yordamida axborotni yetkazadi. *Axborot uzatuvchi — soʻzlovchi, eshituvchi esa tinglovchi sanaladi.* Tinglovchi olamdagi narsa va hodisaning umumlashgan obrazini soʻzlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi aʼzosi yordamida markaziy asab sistemasida tiklaydi.

Soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi ana shunday axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati nutqiy faoliyat sanaladi.

Nutqiy faoliyat yozma ravishda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ham nutqiy jarayon qatnashchilari ikki guruhga boʻlinadi. Xat yoʻllovchi shartli ravishda soʻzlovchi, uni qabul qiluvchi (oʻquvchi) esa tinglovchi hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni eʼtiborga olgan holda mashhur *Shveysariya olimi Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshirishini taʼkidlaydi va tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi.*

Til	Nutq
Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi	Tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi
Umumiy	Xususiy
Imkoniyat	Voqelik
Mohiyat	Hodisa
Tilning birligi – fonema	Nutqning birligi – tovush
Fonema – fonologiya bo`limida o`rganiladi.	Nutq tovushi – fonetika bo`limida o`rganiladi.

5-MAVZU. TOVUSHLARNING FARQLOVCHI VA BIRLASHTIRUVCHI BELGILARI

Nutq tovushlari bir qancha *akustik va fiziologik (talaffuz) belgilariga* ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi *fonetika* uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to'la hisobga olgandagina, u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin *fonologiya* uchun yuqoridagi belgilarning ko'pchiligi muhim sanalmaydi

Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslanganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli bo'ladi.

Bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonimizda yangi bilayotgan narsamizni oldin bilgan narsaga qiyoslaymiz, zidlaymiz va ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni topishga harakat qilamiz. Shuning uchun bilish faoliyatida zidlashlarning ahamiyati katta. Faraz qilingki, oldingizda ikkita egizak bola. Ular bir-biriga nihoyatda o'xshash. Faqat bittasining chap yuzida kichkina xoli bor. Ana shu xol ikkisini bir-biridan farqlovchi belgi sanaladi. Qolgan belgilari esa har ikkisida bir xil. Bu ikki boladan birining ismi *Hasan*, ikkinchisidiki esa *Husan*. Qarangki, ismlarning tovush tarkibi ham bir-biriga naqadar o'xshash. Faqat birinchi bo'g'in unlisi bittasida *a*, ikkinchisida *u* ekanligi bilan farqlanadi. Demak, yuqoridagi ikki so'z birinchi bo'g'indagi unilar bilan bir-biridan farq qiladi. Qolgan tovushlar esa har ikkisida bir xil.

	<i>Farqlovchi belgi :</i>	<i>Birlashtiruvchi belgi :</i>
<i>Zidlanayotgan birliklar:</i>	<i>Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar farqlovchi belgilar deyiladi.</i>	<i>Zidlanayotgan ikki birlikni har ikkisida ham takrorlanadigan, ikkalasi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar birlashtiruvchi belgi deyiladi.</i>
D, T	D -jarangli, T -jarangsiz	Til oldi, portlovchi.
B, P	B -jarangli, P -jarangsiz	Lab undoshi, portlovchi, shovqinli
B, N	B -lab undoshi, shovqinli N -burun tovushi, sonor.	Jarangli, portlovchi

Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xshash tovushlarni bir-biriga zidlash va ular o'rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

NUTQ TOVUSHLARINING UCH TOMONI

Havo to‘lqinlari orqali qulog‘imiz bilan eshitaladigan barcha hodisalarga **tovush** deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi. Har qanday tovush ma‘lum tashqi ta‘sir yordamida havo oqimining tebranishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, ip yoki simni tarang tortib, uni qo‘lingiz bilan chertsangiz havoni tebratadi va tovush chiqadi. Tovushlar **tabiiy** va **inson tovushlariga** bo‘linadi. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo‘lgan barcha tovushlar tabiiy tovushlar sanaladi.

Tabiiy tovushlardan inson tovushlarining farqi shundaki, u inson nutq a‘zolari harakati yordamida ma‘lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi. Bu esa har qanday nutq tovushining uch tomoni mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shunday qilib, nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: **a) akustik; b) talaffuz (fiziologiya); d) vazifaviy** tomonlari. Yuqorida sanalgan belgilardan birinchisi tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi belgilar faqat inson tovushlarigagina xosdir

Akustik tomoni	Fiziologik (talaffuz) tomoni	Vazifaviy tomoni
Har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma‘lum sifat belgisiga: <i>balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr</i> belgilariga ega bo‘ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o‘rganiladi.	Nutq tovushlari insonning nutq a‘zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi.	Nutq tovushlari ma‘lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishidan ma‘lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma‘noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomondan shakllantirish va ma‘nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, <i>soʻli</i> bilan <i>sholi</i> so‘zlari birinchi tovushlari bilan, <i>sot</i> bilan <i>soch</i> so‘zlari oxirgi tovushlari bilan, <i>sot</i> bilan <i>sut</i> so‘zlari o‘rtasidagi tovushlari bilan farqlanadi. Tovushlarning bunday belgilari vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi.
Yuqoridagi holatlarda tovushlarning quyidagi xususiyatlari e‘tiborga olinadi!		
Jarangli-jarangsizligi hamda sof yoki qorishiqligi	Hosil bo‘lish o‘rni hamda hosil bo‘lish usuli	Fonemalar (ma‘no farqlashga xizmat qiluvchi segment birliklar)

Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu uch tomon e‘tiborga olinadi. Masalan, **k** tovushi til o‘rtasining yuqori tanglayga tegishi va o‘pkadan chiqayotgan havoning bu to‘siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu tovushning nutq a‘zolarining qayerida va qanday yo‘l bilan hosil bo‘lishi talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi. Uning sof shovqindan iborat ekanligi, jarangsizligi akustik belgisi, **k** ning **g** dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi. **Tilshunoslik fani uchun vazifaviy tomoni muhim sanaladi. Shuning uchun vazifaviy belgi lingvistik (tilshunoslik) belgi deb ham yuritiladi.**

TOVUSH VA FONEMA

Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo'lgan *xususiylik* va *umumiylik* munosabatini aks ettiradi. Biz bevosita kuzatishda xususiyliklarni sezgi a'zolarimiz bilan his etamiz. Bir xususiylikni boshqa xususiylikka solishtiramiz. Solishtirilayotgan xususiyliklar o'rtasida qanday o'xshash va farqli tomonlar mavjud ekanligini aniqlaymiz. O'xshash jihatlari asosida har qaysi xususiylikni ma'lum umumiylikka — sinfga birlashtiramiz. Masalan, sumkani olaylik. Sinfingizda nechta o'quvchi bo'lsa, o'shancha sumka bor. Bu sumkalar rangi, hajmi yoki materiali, yoxud shakli jihatidan bir-biridan farq qiladi. Sinfingizda nechta sumkani ko'rsangiz, shuncha xususiyliklarni ko'rgan bo'lasiz. Lekin shu xususiyliklarning hammasida takrorlanadigan umumiy belgi bor. Bu belgi sumkalik belgisidir. Ya'ni o'quv qurollari solish uchun mo'ljallangan, ko'tarib yuriladigan, charm va boshqa har xil materiallardan tikilgan anjom. Ana shu belgilar xilma-xil sumkalarni bir sinfga, bir umumiylikka birlashtirishga asos bo'ladi. Xuddi shuningdek, biz nutqiy jarayonda bevosita tovushlarni eshitamiz. Masalan, *i* tovushini olaylik. U, avvalo, har bir shaxsning o'ziga xos talaffuzini o'zida namoyon qiladi. Shu bilan birga, so'zlarning tarkibida yondosh tovushlar ta'siriga beriladi. Masalan, *tushib* so'zining ikkinchi bo'g'inidagi *i* birinchi bo'g'indagi *u* ning ta'sirida *u* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. *Bilan, tilim, sira* so'zlari tarkibida bilinar-bilinmas aytiladi. *Qiliq, qiziq* kabi so'zlar tarkibida til orqa tovush ta'sirida *u* ga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari, unga so'zlovchining qaysi shevaga mansublik belgisi qo'shiladi. Xullas, nutq jarayonida xilma-xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasida takrorlanadigan umumiy jihatlar bor. U ham bo'lsa, *torlik belgisi* va *lablanmaganlik* belgisi. Shu belgilari bilan *a* ga, *o* ga, *i* ga, *u* ga zidlanadi. Ana shu birlashtiruvchi belgilar ma'lum xususiylikni umumiyliklarga birlashtirishga yordam beradi. Umumiylik so'zlovchi va tinglovchilar xotirasida mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham bu umumiylik turlicha talaffuz qilinishiga qaramasdan, so'zlovchi va tinglovchilar o'rtasida bir xil tushunishga olib keladi.

<i>Tovush</i>	<i>Fonema</i>
Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi <i>tovush</i> sanaladi.	Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi <i>fonemadir</i> .
Tovush – <i>nutq birligi</i>	Fonema – <i>til birligi</i>

<i>Zidlanayotgan birliklar</i>	<i>Fonemalar</i>
<i>Tom – tosh</i>	<i>Sh, m</i>
<i>Tosh – tesh</i>	<i>O, e</i>
<i>Tosh – qosh</i>	<i>T, q</i>
<i>Bir –pir</i>	<i>B, p</i>
<i>Bol –pol</i>	<i>B, p</i>
<i>Band – pand</i>	<i>B, p</i>
<i>Sud – sut</i>	<i>D, t</i>
<i>Dor – tor</i>	<i>D, t</i>

Ko'rinadiki, bir fonema bir necha tovushlar orqali ro'yobga chiqadi. Fonemalar ikki va undan ortiq ma'noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali aniqlanadi.

Fonemalar so'zlarning tarkibida muayyan tartibda kelib, ularni moddiy tomondan shakllantiradi. Bunda so'z tarkibidagi fonemalarning joylashish tartibi katta rol o'ynaydi.

FONEMALAR TASNIFI

Fonemalar quyidagi ikkita katta guruhga bo`linadi	
Unli fonemalar	Undosh fonemalar.
O`pkadan chiqayotgan havo og`iz bo`shlig`ida hech qanday to`siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo`ladigan tovushlarga unli fonemalar deyiladi	O`pkadan chiqayotgan havo og`iz bo`shlig`ining ma`lum bir joyida yoki bo`g`izda to`siqqa uchrashidan hosil bo`lgan tovushlar undosh fonemalar sanaladi.
Faqat un(ovoz)dan iborat bo`ladi.	Ovoz va shovqindan iborat bo`ladi.
Bo`g`in hosil qiladi.	Bo`g`in hosil qilmaydi.

UNLI FONEMALAR

i, u, e, o, a unllilarini talaffuz qilib ko`ring. Ularning bir guruhini (*u, o, o,*) talaffuz qilganingizda *lab oldinga qarab cho`chchayadi*, *a, e, i* unli tovushlarini talaffuz qilganingizda esa lab o`z holicha qoladi. Demak, unllilarning bir guruhida lab ishtirok etadi, boshqalarida esa qatnashmaydi. Bundan tashqari, *a* unlisini talaffuz etganingizda og`iz katta ochiladi. Til gorizontol holda pastki jag` ustida yotadi. *i, u* unllilarini talaffuz etganingizda esa, og`iz ozgina ochiladi, tilning o`rtasi esa yuqori tanglayga qarab ko`tariladi. Shunga ko`ra quyidagi uch belgi :

a) *labning ishtiroki;*

b) *og`izning ochilish darajasi (tilning ko`tarilishi darajasi);*

c) *tilning gorizontol harakati* hozirgi o`zbek adabiy tili unllilari tasnifi uchun asos bo`ladi.

Lablarning ishtirokiga ko`ra:	
Lablangan unllilar	<i>U, o`</i>
Lablanmagan unllilar	<i>I, e, a</i>
Oraliq unli	<i>O (lablangan)</i>
Tilning vertikal harakatiga ko`ra (Og`izning ochilish darajasiga ko`ra) :	
Yuqori tor unllilar	<i>U, i</i>
O`rta keng unllilar	<i>E, o`</i>
Quyida keng unllilar	<i>A, o</i>
Tilning gorizontol harakatiga ko`ra :	
Old qator unllilar	<i>I, e, a</i>
Orqa qator unllilar	<i>U, o`, o</i>

“A” unlisi (Old qator, quyi keng, lablanmagan)	
Quyidagi so`zlarda “o” ga monand talaffuz qilinadi	<i>Zamon, zamon, bahor, savob</i>
“E” unlisi (Old qator, o`rta keng, lablanmagan)	
Quyidagi so`zlarda to`liq talaffuz qilinadi	<i>Kecha, ekran, ne`mat</i>
Quyidagi so`zlarda “i” ga monand talaffuz qilinadi	<i>Telefon, teatr, okean, material</i>
“I” unlisi (Old qator, yuqori tor, lablanmagan)	
Quyidagi so`zlarda qisqa talaffuz qilinadi	<i>Bilim, til, tilak, har xil, qism</i>
Quyidagi so`zlarda cho`ziq talaffuz qilinadi	<i>Lutfiy, ommaviy, badiiy</i>
“O” unlisi (Orqa qator, quyi keng, lablangan)	
Quyidagi so`zlarda “a” ga monand talaffuz qilinadi	<i>Kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist</i>
Quyidagi so`zlarda “o” ga monand talaffuz qilinadi	<i>Tonna, noyabr, pochta, pomidor, avtomat</i>
“U” unlisi (Orqa qator, yuqori tor, lablangan)	
Quyidagi so`zlarda “i” ga monand talaffuz qilinadi.	<i>Yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun</i>
“O” unlisi (Orqa qator, o`rta keng, lablangan)	
Quyidagi so`zlarda torroq talaffuz qilinadi	<i>Ko`l, o`s, cho`l, jo`ra, mo`tabar</i>
Quyidagi so`zlarda kengroq talaffuz qilinadi	<i>Bo`ri, qo`ri, xo`roz, ro`mol</i>

Unlilarning yonma-yon kelishi											
<i>ia</i>	<i>Tabiat</i>	<i>oi</i>	<i>Oila</i>	<i>ea</i>	<i>Teatr</i>	<i>oe</i>	<i>Poema</i>	<i>ao</i>	<i>Maosh</i>	<i>uo</i>	<i>Matbuot</i>
<i>ai</i>	<i>Maishiy</i>	<i>io</i>	<i>Radio</i>	<i>ae</i>	<i>Aeroport</i>	<i>au</i>	<i>Laureat</i>	<i>ua</i>	<i>Muammo</i>	<i>oa</i>	<i>Sanoat</i>

Qator kelgan unlili soʻzlar *boshqa (ko`pincha arab-fors) tillardan kirib kelgani* tufayli bunday soʻzlardagi qator unlilarni ogʻzaki nutqda yo bir choʻziq unliga aylantirish (masalan, *muallimm malim*) yoki qator kelgan unlilar oʻrtasiga ayrim undoshlarni qoʻshish yoʻli bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi. Masalan: *soat* soʻzi Fargʻonada *sohat*, Toshkentda *sogʻat* tarzida talaffuz qilinadi.

UNDOSHLAR TASNIFI

Undosh tovushlarning hosil boʻlishida *boʻgʻiz boʻshligʻi, ogʻiz boʻshligʻi* va *til* muhim ahamiyatga ega. Oʻpkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil toʻsiqlarga duch keladi. Buning oqibatida esa undosh tovushlarning hosil boʻlishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Baʼzi hollarda unga jarang ham qoʻshiladi. Masalan, «b» undoshining talaffuzida oʻpkadan chiqayotgan havo lablar toʻsigʻiga uchraydi. «P» undoshining hosil boʻlishida ham shunday holat bor, lekin uning «b» dan farqi talaffuzida jarang ishtirok qilmaydi.

OʻZBEK TILIDA	24 TA UNDOSSH TOVUSH	<i>b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, gʻ, h, ng, dj (jirafa, jurnal, jemper)</i>	MAVJUD
	23 TA UNDOSSH HARF	<i>b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, gʻ, h, ng.</i>	

Hosil boʻlish oʻrniga koʻra :			
<i>Nutq aʼzolariga oʻpka, boʻgʻiz, tovush paychalari, ogʻiz boʻshligʻi, til, lablar, tishlar va burun boʻshligʻi kiradi. Qaysi nutq aʼzosi ishtirok etishiga koʻra nutq tovushlari quyidagicha guruhlanadi.</i>			
LAB UNDOSHLARI	1.	Lab-lab	<i>b, p, m</i>
	2.	Lab-tish	<i>v, f</i>
TIL UNDOSHLARI	1.	Til oldi	<i>d, j, l, n, r, s, t, z, sh, ch</i> <i>Shercha jonsiz til oldi</i>
	2.	Til oʻrta	<i>y</i>
	3.	Til orqa	<i>g, k, ng</i>
	4.	Chuqur til orqa	<i>q, gʻ, x</i>
BOʻGʻIZ UNDOSHI	<i>h</i>		

Hosil boʻlish usuliga koʻra :		
<i>Undosh tovushlar nutq aʼzolarining biror yerida toʻsiqqa uchrab, shu toʻsiqda portlab yoki sirgʻalib oʻtib ketishiga koʻra ham tavsiflanadi. Ikki nutq aʼzosining jiplashuvi natijasida oʻpkadan chiqayotgan havo oqimining zarb bilan portlab oʻtishidan portlovchi undoshlar hosil boʻladi. Ikki nutq aʼzosining oʻzaro jiplashmasidan, bir-biriga yaqinlashishi natijasida havo oqimining ular orasidan ishqalanib-sirgʻalib chiqishidan sirgʻaluvchi undoshlar hosil boʻladi.</i>		
PORTLOVCHILAR	<i>d, t, j, m, n, g, k, q, b, p, ng</i>	<i>Tik bodom tagida oppoq joʻja</i>
SIRGʻALUVCHILAR	<i>gʻ, z, y, sh, h, l, r, x, v, f, s. (dj).</i>	<i>Gʻoziy shohlar xavfsiz (dj)</i>
QORISHIQ UNDOSSH	<i>ch</i>	-

Izoh : Qorishiq undoshlar ikki usul asosida – toʻla boʻlmagan portlash va undan keyin sirgʻalish natijasida vujudga keladi: *d+j=dj, t+sh=ch.*

Tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra :

Undoshlar tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra jarangli va jarangsizlarga bo`linadi. Jarangli undoshlar tarkibida *shovqin* bilan birga ma`lum darajada *ovoz* ham ishtirok etadi. Jarangsiz undoshlar ovoz mutlaqo qatnashmaydigan, faqat shovqindangina iborat bo`lgan tovushlardir.

JARANGLILAR	b	d	g	j	j (dj)	v	z	g`	y	l	m	n	r	ng	-	-
JARANGSIZLAR	p	t	k	ch	sh	f	s	x	-	-	-	-	-	-	q	h

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra :

Undosh tovushlar tarkibida *shovqin miqdori ovozga nisbatan ko`p bo`lsa* yoki ovoz mutlaqo qatnashmasa, bunday tovushlar *shovqinlilar* deb nomlanadi. Agar ovoz miqdori ustunlik qilsa, bunday tovushlar *sonor (ovozdor)* dir.

OVOZDORLAR (SONORLAR)	l, m, n, ng, r	1.	Burun tovushlari	m, n, ng
		2.	Yon tovushi	l
		3.	Titroq tovushi	r
SHOVQINLILAR	Sonorlar (m, n, ng, l, r) dan boshqa barcha undoshlar			

Tarkibiga ko`ra :

Fonemalar tarkib jihatdan ham ikki turga ajraladi : sof va qorishiq. O`zbek tilida bitta qorishiq fonema mavjud – ch. Uning qorishiq deyilishiga sabab – lotin tilidagi „c“ va o`zbek tilidagi „h“ harflarining birikuvidan hosil bo`lganligidir.

SOF UNDOHLAR	Qorishiq undosh (ch) dan tashqari barcha undoshlar
QORISHIQ UNDOH	ch

Undoshlar tasnifini ushbu jadval bo`yicha yodlash tavsiya qilinadi.

Fonema	Hosil bo`lish o`rniga ko`ra	Hosil bo`lish usuliga ko`ra	Tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra	Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra
B b	Lab-lab	Portlovchi	Jarangli	Shovqinli
D d	Til oldi	Portlovchi	Jarangli	Shovqinli
F f	Lab-tish	Sirg`aluvchi	Jarangsiz	Shovqinli
G g	Til orqa	Portlovchi	Jarangli	Shovqinli
H h	Bo`g`iz undoshi	Sirg`aluvchi	Jarangsiz	Shovqinli
J j	Til oldi	Portlovchi	Jarangli	Shovqinli
J (dj)	Til oldi	Sirg`aluvchi	Jarangli	Shovqinli
K k	Til orqa	Portlovchi	Jarangsiz	Shovqinli
L l	Til oldi	Sirg`aluvchi	Jarangli	Sonor
M m	Lab-lab	Portlovchi	Jarangli	Sonor
N n	Til oldi	Portlovchi	Jarangli	Sonor
P p	Lab-lab	Portlovchi	Jarangsiz	Shovqinli
Q q	Chuqur til orqa	Portlovchi	Jarangsiz	Shovqinli
R r	Til oldi	Sirg`aluvchi	Jarangli	Sonor
S s	Til oldi	Sirg`aluvchi	Jarangsiz	Shovqinli
T t	Til oldi	Portlovchi	Jarangsiz	Shovqinli
V v	Lab-tish	Sirg`aluvchi	Jarangli	Shovqinli
X x	Chuqur til orqa	Sirg`aluvchi	Jarangsiz	Shovqinli
Y y	Til o`rta	Sirg`aluvchi	Jarangli	Shovqinli
Z z	Til oldi	Sirg`aluvchi	Jarangli	Shovqinli
G` g`	Chuqur til orqa	Sirg`aluvchi	Jarangli	Shovqinli
Sh sh	Til oldi	Sirg`aluvchi	Jarangsiz	Shovqinli
Ch ch	Til oldi	Qorishiq-portlovchi	Jarangsiz	Shovqinli
Ng ng	Til orqa	Portlovchi	Jarangli	Sonor

QATOR VA QO`SH UNDOSHLAR

Nutqda har xil undosh tovushlarning qator kelishi yoki birga bir xil undoshlarning qator qo`shaloq holda qo`llanishi uchraydi. O`zbek tilida so`z tarkibida tovushlarning qo`shaloq qo`llanishi asosan o`zlashma so`zlar ta`sirida paydo bo`lgan hodisadir. Chunki o`zbek tilidagi so`zlar tarkibida tovushlar aksariyat hollarda *unli+undosh* yoki aksincha *undosh+unli* tarzida joylashadi. Xususan, o`zbek adabiy tilida undoshlarning qator hamda qo`shaloq holda kelishi, asosan, so`z o`zlashtirish orqali vujudga kelgan bo`lib, quyidagicha kombinatsiyalarda uchratish mumkin.

So`z boshida	So`z o`rtasida	So`z oxirida
<i>Ssuda</i>	<i>Katta</i>	<i>Kongress</i>
<i>Traktor</i>	<i>Do`stlik</i>	<i>Qirq</i>

Qator undosh	Qo`sh undosh
Bir bo`g`in tarkibida yonma-yon kelgan har xil undoshlar.	So`z tarkibida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar.
So`z boshidagi qator undoshlar o`rtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qo`shib talaffuz qilinsa ham, bu qisqa unli yozilmaydi. Masalan : <i>stol (istol tarzida talaffuz qilinadi)</i>	<i>Ikki, chaqqon</i> kabi so`zlarda qo`sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.
<i>Go`sht, do`st, barg</i> kabi so`z oxirida kelgan qo`sh undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda ifodalanadi.	<i>Million, artilleriya</i> kabi so`zlarda kelgan qo`sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo`sh undosh bilan yoziladi.
<i>Paxta, nimcha, o`simlik</i> so`zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bu undoshlar bir bo`g`inda bo`lmaganligi uchun qator kelgan undoshlar hisoblanmaydi.	<i>Gramm, metall</i> kabi so`zlar oxirida kelgan qo`sh undosh- lardan biri talaffuzda tushirib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalanadi.

Gramm, metall, ball kabi so`zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qo`shimchalar, egalik qo`shimchasi va boshqa qo`shimchalar qo`shilganda, qo`sh undoshning biri yozilmaydi. Masalan, *metall+lar = metallar, gramm+i = grami, ball +im = balim, metall + ing = metaling. Ushbu holatlarda ham qo`sh undoshlik xususiyati saqlanadi.*

O`zbek alifbosida maxsus belgilar orqali berilmaydigan bitta undosh mavjud – *ng*. Ushbu harf birikmasi ba`zida bitta tovushni (*ng*), ba`zida esa ikkita tovushni (*n, g*) ifodalab kelishi mumkin. Shunga ko`ra, “*ng*” harf birikmasi qatnashgan barcha so`zlar ham qator undoshli so`zlar hisoblanmaydi. Masalan, *singil, dengiz, ko`ngil* so`zlarida qator undosh mavjud emas. *Shtanga, kongress, langar* kabi so`zlarda esa qator undosh mavjud, chunki bu yerda *n* va *g* harflari alohida tovushlarni ifodalab kelgan. *Ng* tovushini *n* va *g* tovushlaridan farqlash uchun quyidagi qoidaga amal qiling.

Bir asos tarkibida yonma-yon va ikki unli o`rtasida kelgan *n* va *g* harflari sof o`zbekcha so`zlarda har doim „*ng*“ tovushini ifodalaydi. Bo`g`inga ajratilganda esa ikkinchi unli bilan birgalikda ajratiladi. Masalan, *ko`ngil, si/ngil, de/ngiz*. Chetdan kirib kelgan so`zlarda *n* va *g* harflari alohida-alohida tovushlarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *kon/gress, lan/gar* kabi.

Qo`sh undoshlar, odatda, o`zbek tilida so`z o`rtasida keladi: *malla, shovvoz, tizza, do`ppi* kabi. Rus tili orqali o`zlashgan so`zlarda esa so`z oxirida ham qo`llanadi: *gramm, metall, kilovatt* kabi.

Talaffuzda qo`sh undoshlardan birini aytmaslik adabiy talaffuz maromiga ziddir, ayniqsa, o`zbek tilida bu holat ma`no farqlashga ham xizmat qiladi: *sodda – soda, modda – moda, billur – bilur (bilar ma`nosida)* kabi. O`zbek tilida qo`sh undoshlar o`zak oxiridagi undoshdan keyin shunday undosh bilan boshlanuvchi qo`shimcha qo`shish (*eshit+tir, es+siz, gul+lar* kabi), o`zak oxiri va qo`shimcha boshidagi tovushlarning

o'zgarishi (*bir+ta-bitta, vatan+ni – vatanni, ek+gin – ekin,chiq + guncha – chiqquncha* kabi), sifatning kuchaytirma shakli yasalishi (*oppoq, soppa-sog', chippa-chin* kabi) bilan hosil bo'ladi.

Undoshlarning yonma-yon kelishi			
O'zbek tilida		Fors-tojik tilida	
<i>St</i>	<i>Ost, ust</i>	<i>Sht</i>	<i>Go`sht, musht</i>
<i>Lt</i>	<i>Yilt, milt</i>	<i>Xt</i>	<i>Daraxt, baxt</i>
<i>Rt</i>	<i>To`rt, turt, qurt</i>	<i>Rg</i>	<i>Barg</i>

OHANG VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI

Nutq ketma-ket kelgan tovushlar yig`indisi yoki zanjirsimon ulanishdan iborat bo'lib, u talaffuz davriga ko`ra oldinma-keyin kelgan fonetik birliklarga bo`linadi. **Bunday bo`linuvchanlik xususiyatiga ega bo`lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi.** Lekin og`zaki nutqimiz faqat segment birliklardagina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari, ketma-ket joylashgan va bo`linuvchanlik xususiyatiga ega bo`lgan tovushlar qatori ustiga qo`yilgan *ustsegment (supersegment)* birliklarga ham ega bo`ladi va bu birliklar nutqimiz ta`sirchanligini ta`minlaydi.

Segment birliklar	Nutq tovushlari, bo`g`in
Ustsegment birliklar	Urg`u, to`xtam (pauza), nutqning emotsional bo`yog`i (darak, so`roq, buyruq, his-hayajon)

Og`zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o`zaro munosabatidan iborat bo`ladi. Ko`pincha bunga imo-ishoralalar, mimikalar qo`shilib, nutqimizni yana ham ta`sirli, bo`yoqdor qilishga xizmat qiladi.

Nutqiy aloqaning eng sodda, eng boshlang`ich shakli bo`lgan ikki bo`lakning sintaktik munosabati *sintagma (takt)* deb ataladi. Sintagma bir so`zdan, so`zlar guruhidan va butun bir gapdan iborat bo`lishi mumkin.

Sintagmaning bo`laklari		
1.	Biri ikkinchisini aniqlab kelish yo`li bilan bog`langan ikki so`z	<i>Qiziq xat, xat yozdim, chiroyli yozdim.</i>
2.	So`zning morfologik qismlari, morfemalar, morfemalarning birikuvi	<i>Suv+chi, talaba+man, bog`bon+siz</i>
3.	Gapning bir bo`lagi bo`lib kelgan so`z birikmalari	<i>“Og`riq tishlar”ni ko`rdik. Qo`l uchi bilan ishlaydi.</i>

Ayrim hollarda sintagma bilan so`z birikmasini tenglashtirish hollari ham uchraydi. Lekin nutq jarayonini kuzatish sintagma va so`z birikmasini aynan bir narsa emasligini, har doim ham bir-birga teng kelavermasligini ko`rsatadi. Masalan, *“Biz yoshlar, mustaqil Vatanimizni sevamiz”* gapida 3 ta sintagma va 2 ta so`z birikmasi mavjud.

“Eng buyuk jihod insonning nafsi bilan, shayton bilan qilgan jihoddir. Sen ham doim ularga qarshi kurash”.

Ushbu gapning tahlili : Tovushlar soni – 82 ta
Bo`g`inlar soni – 33 ta
So`zlar soni – 16 ta
Sintagmalar soni – 7 ta.

“Eng buyuk jihod / insonning nafsi bilan, / shayton bilan qilgan / jihoddir. Sen ham / doim / ularga qarshi kurash.”

URG`U VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI

So`z bo`g`inlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan so`zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq yoki cho`ziqroq talaffuz qilinishiga *urg`u* deyiladi. Urg`uning vazifalari : **1.** So`zlarning fonetik tarkibini uyushtirish; **2.** Gap tarkibida so`zlarni bir-biridan farqlash.

Urg`u yordamida nutq ko`rkamlashadi, eshituvchiga yoqimli bo`ladi, uni zeriktirmaydi.

Urg`u tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo`lishiga ko`ra 2 xil bo`ladi	
So`z urg`usi (leksik urg`u)	Gap urg`usi (mantiqiy urg`u)
So`z bo`g`inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishi. Yozuvda urg`u tushgan bo`g`in tepasiga () belgisini qo`yish bilan ifodalash mumkin.	Gapda so`zlovchi tomonidan alohida ahamiyat berilib, ta`kidlab ko`rsatilgan bo`lakning kuchli ohang bilan aytilishi.

So`z urg`usi, odatda, bo`g`indagi unli tovushga tushadi. So`z nechta bo`g`indan tuzilganligidan qat`i nazar, unda bitta urg`u bo`ladi. Urg`uning *erkin va bog`liq (bog`langan)* urg`u degan ko`rinishlari bir-biridan farqlanadi. Erkin urg`u bir bo`g`indan ikkinchi bo`g`inga ko`chish xususiyatiga ega bo`lgan va so`zning ma`nosini farqlash uchun xizmat qiladigan urg`u bo`lsa, bog`liq urg`u so`zdagi biror bir bo`g`inga doimiy bog`lanadigan urg`u sanaladi. Turkiy, jumladan, o`zbek tilida urg`u o`rniga ko`ra ko`chib yuruvchi urg`u sanaladi. Masalan, *o`rikzòr, o`rikzorlòr, o`rikzordà*

O`zbek tiliga *arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan* o`zlashgan so`zlarda urg`u barqaror o`ringa ega. Bu urg`uning o`sha tillardagi ahamiyati bilan bog`liqdir. Masalan, *tadbir, monitoring, reklama, tijorat, ma`lum, bahor, astronomiya, antenna* va hokazo. O`zga tillardan o`zlashgan so`zlarga qo`shimcha qo`shilsa ham, urg`uning o`rni o`zgarmaydi.

So`z urg`usining muhim vazifalaridan biri so`zlarning ma`nolarini farqlashdir. Agar urg`u so`z bo`g`inlarida o`zaro almasha olsa, ma`no ham o`zgaradi, urg`uni bir bo`g`inga qo`ysak, boshqa ma`no, ikkinchisiga qo`yganda esa o`zga bir ma`no anglashiladi. Bunday urg`u *erkin urg`u* sanaladi.

URG`U YORDAMIDA MA`NO FARQLANISHI	
Fe`l so`z turkumida	Ot so`z turkumida
<i>Bog`lar</i>	<i>Bog`lar</i>
<i>Ko`zlar</i>	<i>Ko`zlar</i>
<i>Gullar</i>	<i>Gullar</i>
<i>Olma</i>	<i>Olma</i>
<i>Qayish</i>	<i>Qayish (taom nomi)</i>
<i>Tugma</i>	<i>Tugma</i>
<i>Suzma</i>	<i>Suzma</i>
Ot so`z turkumida	Sifat so`z turkumida
<i>Akademik</i>	<i>Akademik</i>
<i>Botanik</i>	<i>Botanik</i>
<i>Etik</i>	<i>Etik</i>
<i>Lirik (lirik asar yozadigan shoir)</i>	<i>Lirik</i>
<i>Logik (mantiqshunos)</i>	<i>Logik (mantiqiy)</i>
<i>Sinoptik</i>	<i>Sinoptik</i>
<i>Atlas (geografik karta)</i>	<i>Atlas (mato turi)</i>
Ravish so`z turkumida	Sifat so`z turkumida
<i>Hozir</i>	<i>Hozir</i>
<i>Yangi</i>	<i>Yangi</i>

Ot so`z tukumida	Ot so`z turkumida
<i>Chora</i> (imkon)	<i>Chora</i> (idish)
<i>Organ</i> (davlat tashkiloti)	<i>Organ</i> (musiqqa asbobi)
<i>Moda</i> (odat)	<i>Moda</i> (hayvonlarning urg`ochisi)
<i>Soya</i> (o`simlik turi)	<i>Soya</i> (ko`lanka)
Ot so`z turkumida	Ravish so`z turkumida
<i>Shaharcha</i> (kichik shahar)	<i>Shaharcha</i> (shaharliklarga xos)
<i>Bog`cha</i> (bolalar bog`chasi)	<i>Bog`cha</i> (bog` kabi kattalikda)
<i>Yigitcha</i>	<i>Yigitcha</i> (yigit kabi)

Chetdan o`zlashgan ayrim so`zlarda urg`uning o`rnini aniqlash usullari	
Urg`u olmagan bo`g`indagi "o" unlisi "a" ga monand talaffuz qilinadi. Natijada, asliga muvofiq talaffuz qilinuvchi unli tovushga urg`u tushgan bo`ladi.	<i>Motor</i> (mator), <i>fontan</i> (fantan), <i>roman</i> (raman)..
Urg`u olmagan bo`g`indagi "e" unlisi "i" ga monand talaffuz qilinadi.	<i>Telefon</i> (tilifon), <i>televizor</i> (tilivizir)...
Urg`u olmagan bo`g`indagi "o" unlisi "i" ga monand talaffuz qilinadi.	<i>Rektor</i> (rektir), <i>direktor</i> (direktir), <i>traktor</i> (traktir), <i>doktor</i> (doktir)...

Izoh : Ayrim hollarda ("o" unlisi "o") unlisi kabi talaffuz qilinganda) chetdan o`zlashgan so`zlarda yozilishi bilan talaffuz qilinishi farqlanuvchi bo`g`inlar urg`u olgan bo`ladi. Masalan, *Vodorod* (vadaro`d), *astronomiya* (astrano`miya), *auditoriya* (audito`riya), *sanatoriya* (senato`riya)...

Urg`u olmaydigan shakllar		
1.	Sof ko`makchilar.	<i>Bilan, uchun, sari, sayin, singari, kabi, tufayli, uzra, qadar, yanglig`, haqida.</i>
2.	Bir bo`g`inli so`zlar	<i>Bor, ber, kel, yer...</i>
3.	Qo`shimcha yuklamalar	<i>-mi, -chi, -a, -ya, -u, -yu, -da, -ku, -gina, -oq, -yoq, -dir, -ki.</i>
4.	Shaxs-son qo`shimchalari	<i>-man, -san, -dir, -miz, -siz.</i>
5.	Fe`lning bo`lishsizlik shaklini yasovchi qo`shimchalar	<i>-ma, -may, -mas, -masdan, -maslik.</i>
6.	Faol fe`l yasovchi ayrim qo`shimchalar	<i>-la, -lar.</i>
7.	Son turini hosil qiluvchi ayrim qo`shimchalar	<i>-ta, -tacha, -lab, larcha.</i>
8.	Ravish yasovchi ayrim qo`shimchalar	<i>-dek, -day, -cha.</i>
9.	Buyruq-istak maylini hosil qiluvchi qo`shimchalar	<i>-sin, -gin, -y(-ay), -ylik, (-aylik), -(i)ng, -(i)ngiz, -inglar, -sinlar</i>
10.	Familiya hamda otasining ismini hosil qiluvchi qo`shimchalar	<i>-ov, -ova, -yev, -yeva, -ovich...</i>
11.	Fe`lning zamon qo`shimchalari	<i>-di, -gan, -yapti, -ar...</i>
12.	Gumon olmoshini hosil qiluvchi qo`shimcha	<i>-dir</i>
13.	Fe`lning shart mayli qo`shimchasi	<i>-sa.</i>

Izohlar : 1. Sof ko`makchilar bilan birga kelgan mustaqil so`zning oxirgi bo`g`ini urg`u oladi: *Osmon uzra.*
 2. Bir bo`g`inli so`zlar sof ko`makchilar bilan qo`llansa, urg`u oladi : *Yer uzra.*
 3. -gina qo`shimchasidan keyin qo`shimcha qo`llansa, urg`u oladi : *Bolagina+m mening...*
 4. *Qazilma, qurilma, qazilma, qo`llanma, qurama* kabi so`zlarning oxirgi bo`g`ini urg`u oladi, chunki ularning fe`l shakli yo`q, ular ot so`z turkumida.

Shakldosh qo`shimchalar			
1.	-gina	Erkalash-kichraytirish	<i>Erkagina</i> qiz. (urg`uli)
		Ayiruv-chegaralov yuklamasi	Zumradgina kelmadi.(urg`usiz)
2.	-lar	Ko`plik shakli	<i>Bog`da gullar</i> ochildi. (urg`uli)
		Fe'l yasovchi	<i>Bu o`rik har yili qiyg`os gullardi.</i> (urg`usiz)
3.	-miz	Egalik qo`shimchasi	<i>Bizning talabamiz</i> g`olib bo`ldi. (urg`uli)
		Shaxs-son qo`shimchasi	<i>Biz ADU talabalarimiz.</i> (urg`usiz)
4.	-ma	Sifat yasovchi	<i>Qaynatma</i> sho`rva. (urg`uli)
		Fe'lning bo`lishsizlik shakli qo`shimchasi	<i>Suvni ko`p qaynatma.</i> (urg`usiz)
5.	-chi	So`z yasovchi qo`shimcha	<i>Fermerga suvchi</i> kerak. (urg`uli)
		So`roq yuklamasi	<i>Sen-chi, sen bormaysanmi?</i> (urg`usiz)
6.	-a	So`z yasovchi qo`shimcha	<i>Tezlik bilan xonadagi o`quvchilarni sana.</i> (urg`uli)
		So`roq yuklamasi	<i>Sen-a, sen Dubayga borib keldingmi?</i> (urg`usiz)
7.	-da	O`rin-payt kelishigi	<i>Sumkam uyda</i> qolibdi. (urg`uli)
		Kuchaytiruv-ta`kid yuklamasi	<i>Afsus, imtihondan o`ta olmabsan-da.</i> (urg`usiz)
8.	-oq	So`z yasovchi qo`shimcha	<i>Dushmanlaring senga tuzoq</i> qo`yishgan. (urg`uli)
		Kuchaytiruv-ta`kid yuklamasi	<i>Maktabdan keliboq</i> yonimga kel. (urg`usiz)
9.	-siz	Sifat yasovchi	<i>Suvsiz</i> cho`llar. (urg`uli)
		Shaxs-son qo`shimchasi	<i>Hayotimiz mazmuni sizsiz.</i> (urg`usiz)
10	-cha	Erkalash-kichraytirish	<i>Kuchukchani</i> ng uyi bitdi. (urg`uli)
		Ravish yasovchi	<i>Erkakcha</i> gapirdi. (urg`usiz)

Quyidagi holatlarda urg`u oxirgi bo`ginga TUSHMAYDI		
1.	Ayrim olmoshlarda	<i>Har</i> kim, <i>har</i> nima, <i>har</i> narsa, <i>hech</i> kim, <i>hech</i> nima, <i>hech</i> narsa, <i>kimdir</i> , <i>ba`zi</i> , <i>qaysi</i> , <i>qanday</i> , <i>hamma</i> , <i>bari</i> , <i>barcha</i> ...
2.	Ayrim bog`lovchilarda	<i>Ammo</i> , <i>lekin</i> , <i>chunki</i> , <i>garchi</i> , <i>agarda</i> , <i>mabodo</i> , <i>basharti</i> , <i>ya`ni</i> ...
3	Ayrim ravishlarda	<i>Ba`zan</i> , <i>tezda</i> , <i>doim</i> , <i>yangi</i> , <i>hozir</i> , <i>aslo</i> ...
4	Ayrim modal so`zlarda	<i>Albatta</i> , <i>afsuski</i> , <i>balki</i> , <i>zero</i> , <i>so`zsiz</i> , <i>chamasi</i> ...
5	Ayrim so`z-yuklamalarda	<i>Hatto</i> , <i>zero</i> , <i>go`yo</i> ...
6.	Fe'lning II shaxs buyruq-istak shakllarida	<i>O`qi</i> , <i>gapir</i> , <i>o`tir</i> , <i>tashla</i> , <i>yasha</i> , <i>ishla</i> ...
7.	Qo`shma sonlarda	<i>O`n</i> ikki, <i>o`n to`qqiz</i> , <i>yigirma besh</i> ...
8.	Qo`shma fe'llarda va ko`makchi fe'lli so`z qo`shilmalarida	<i>Sotib oldi</i> , <i>yozi</i> b oldi, <i>berib yubordi</i> ..
9.	Takroriy so`zlarda	<i>Katta-katta</i> , <i>asta-asta</i> , <i>yam-yashil</i> , <i>qop-qora</i> , <i>qip-qizil</i> .
10.	Tarkibida sifatning darajasini ko`rsatuvchi so`zlar ishtirok etgan birliklarda	<i>Nimpushti</i> , <i>tim qora</i> , <i>lang ochiq</i> ...
11.	Ayrim o`zlashma so`zlarda	<i>Respublika</i> , <i>ruchka</i> , <i>gazeta</i> , <i>direktor</i> , <i>fizika</i> , <i>matematika</i> , <i>akademiya</i>

Izoh: Juft so`zlarda urg`u 2-so`zning oxirgi bo`g`iniga tushadi. Masalan, *kecha-kunduz*, *ota-ona*, *kiyim-kechak*...

Gap urg'usida asosiy vazifani so'z bajarib, gapdagi so'zlardan birining boshqa so'zlarga nisbatan alohida ta'kidlanib aytilishidir. Gap urg'usi yana *mantiqiy, ma'no, frazaviy, logik, ohang, intonatsion* kabi nomlar bilan ham ataladi. Gap urg'usini olgan so'z, odatda, kesimdan oldin joylashadi. Gap urg'usini ixtiyoriy ravishda ko'chirish mumkin :

1. **Biz** kecha muzeyga bordik. (Biz bordik).
2. Biz **kecha** muzeyga bordik. (Kecha bordik).
3. Biz kecha **muzeysga** bordik. (Muzeysga bordik).
4. Biz kecha muzeyga **bordik**. (Bordik).

Ajratilgan bo'laklar har doim mantiqiy urg'u olgan bo'ladi: *Men Azimova Shohista, bu yil albatta talaba bo'laman.*

TOVUSH O'ZGARISHI HODISALARI

Nutq jarayonida tovushlarni ketma-ket keltirish yo'li bilan turli xil ma'noli birliklarni hosil qilamiz. Masalan, *t-o-sh, b-o-sh, q-o-l*.

Yuqoridagi so'zlar tarkibidagi tovushlar alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi, so'zlar uzluksiz talaffuz qilinganda, uning tarkibidagi bir tovush hali to'liq talaffuz qilinmay turib, nutq a'zolari ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovushlar zanjiri vujudga keladi.

Talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjirida turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi.

Masalan, *oq* so'zi asosiga *-gach* qo'shimchasini qo'shsak, asos oxiridagi chuqur til orqa *q* dan so'ng til orqa *g* undoshi kelib, chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o'tishi qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf qilish, qulaylikka erishish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqa tovushiga aylantiriladi. Solishtiring: *oqqach, soqqani, ekkani* kabi.

So'z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta'sir qilmagan holda ham o'zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning so'z tarkibidagi o'rni (qanday tartibda joylashganligi); so'zning boshida yoki oxirida, urg'uli yo urg'usiz bo'g'inda kelishi muhim rol o'ynaydi. Masalan, *odob, javob, niqob, maktab* so'zlari oxirida kelgan *b* jarangli undosh talaffuzda jarangsiz *p* tarzida talaffuz qilinadi; *negativ, normativ pozitiv, operativ* kabi ruscha-internatsional so'zlarning oxirida kelgan *v* jarangli undosh jarangsiz *f* tarzida; *voleybol, olimpiada* kabi ruscha-internatsional so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan *o* unlisi esa *a* tarzida talaffuz qilinadi: *valeybol, olimpiada*. Bunday hodisalarning sodir bo'lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo'g'inda urg'uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o'tgan so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo'lishi mumkin.

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket kelayotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar yoki fuziya hodisasi deyiladi. Fonetik hodisalar unlilarga ham, undoshlarga ham taalluqlidir.

TOVUSH ALMASHISHI (MOSLASHISHI) HODISALARI

		Faqat talaffuzda aks etishi	Ham talaffuzda, ham yozuvda aks etishi
Assimilatsiya	Bir tovushning yon tovushga moslashishi yoki ikki noo'xshash tovushning o'xshash bo'lib qolishi. Assimilatsiya ikki xil bo'ladi. Oldinda oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush o'zgarsa, <i>progressiv assimilatsiya</i> deyiladi. Keyingi tovush ta'sirida oldingi tovush o'zgarsa, <i>regressiv assimilatsiya</i> deyiladi.	<i>Ot+di=otti</i> <i>Ket+di=ketti,</i> <i>Tuz+siz=tussiz</i> <i>Yoz+sin=yossin,</i> <i>Xat+ni=xatti,</i> <i>Ish+ga=ishka,</i> <i>Taqsim=taxsim,</i> <i>Shanba=shamba</i> <i>Tanbur=tambur</i>	<i>Son+a=sana,</i> <i>Ong+la=angla,</i> <i>Ot+a=ata,</i> <i>Yosh+a=yasha,</i> <i>Chiq+gan=chiqqan,</i> <i>Qishloq+ga=qishloqqa</i> <i>Tik+gan=tikkan</i> <i>Non+voy=novvoy.</i> <i>Bir+ta=bitta</i> <i>Tilak+ga=tilakka</i> <i>Tuzuk+gina=tuzukkina.</i>

Dissimilatsiya	Ikkita bir xil yoki qisman o`xshash tovushning o`zaro ta`sirida noo`xshash bo`lib qolishi. Bu hodisani assimilatsiyaning aksi deyish mumkin. Dissimilatsiya ham iki xil bo`ladi. Oldingi tovush ta`sirida keyingi tovush o`zgarishga uchrasa, <i>progressiv dissimilatsiya</i> deyiladi. Keyingi tovush ta`sirida oldingi tovush o`zgarsa, <i>regressiv dissimilatsiya</i> deyiladi.	Faqat talaffuzda aks etishi	Ham talaffuzda, ham yozuvda aks etishi
		<i>Zarur=zaril Maqta=maxta, Uch+ta=ushta, Koridor=kolidor, Zarar=zaral, Devor=devol, Ittifoq=intifoq</i>	<i>Qishloq+i=qishlog`i. Qishloq+ing=qishlog`ing, Tala+n=talon, Qara+l=qarol, Tara+q=taroq, Birorta=bironta</i>
Metateza	Yonma-yon kelgan tovushlarning o`zaro o`rin almashinuvi. Bu hodisa ko`proq jonli so`zlashuvga, ayniqsa, shevalarga xos bo`lib, adabiy tilde kamroq uchraydi.	<i>Tuproq=turpoq daryo=dayro, supra=surpa...</i>	<i>to`g`ramoq=to`rg`amoq, afv=avf,, ahvol=avhol,</i>

TOVUSH ORTISH HODISALARI

Asos+so`z yasovchi	So`z yasovchi qo`shimcha ta`sirida tovush ortishi	<i>Achi+q=achchiq, isi+q=issiq, sasi+q=sassiq, his+iy=hissiy,tib+iy=tibbiy,jiz+a=jizza, shart+a=shartta,taq+q=taqqa, shar+os=sharros, var+ak=varrak, gur`+ak=g`urrak...</i>
Asos+egalik qo`shimchalari	Ayrim so`zlarga I va II shaxs egalik qo`shimchalari qo`shilishi natijasida tovush ortishi.	<i>Mavzu+im=mavzuyim, obro`+im=obro`yim, mavqe+ing=mavqeying, baho+ing=bahoying, Xudo+im=Xudoyim, avzo+ing=avzoying, parvo+ing=parvoying...</i>
Ko`rsatish olmoshi+egalik qo`shimchasi	<i>U, bu, shu, o`sha</i> kabi olmoshlarga egalik qo`shimchalari qo`shilishi natijasida tovush ortishi.	<i>Bu+im=bunim, u+ing=uning, o`sha+i+si=o`shanisi, shu+i+si=shunisi..</i>
Ko`rsatish olmoshi+kelishik qo`shimchasi	<i>U, bu, shu, o`sha</i> kabi olmoshlarga <i>jo`nalish, o`rin-payt, chiqish</i> kabi kelishiklarning qo`shilishi natijasida tovush ortishi.	<i>U+ga=unga, u+da=unda, bu+dan=bundan...</i>
Fe`l+nisbat qo`shimchasi	<i>Demoq, yemoq</i> kabi fe`llarga <i>majhul va birgalik</i> nisbat qo`shimchalarini qo`shish natijasida tovush ortishi.	<i>De+il=deyil, ye+ish+yeyish...</i>

Izoh : “Orzu” so`ziga egalik qo`shimchalari qo`shilganda hech qanday tovush ortmaydi.

TALAFFUZDA RO`Y BERADIGAN TOVUSH ORTISH HODISALARI

PROTEZA	So`z boshida tovush ortishi.	<i>Stol=istol, stul=istul, stakan=istakan..</i>
EPENTEZA	So`z o`rtasida tovush ortishi.	<i>Trakor=tiraktor, fikr=fikir, hukm=hokum, uzr=uzur, oila=oyila, soat=soxat, sinf=sinif.</i>
EPITEZA	So`z oxirida tovush ortishi.	<i>Tank=tanka, bank=banka, disk=diska,</i>

TOVUSH TUSHISH HODISALARI		
Asos+egalik qo`shimchasi	Ayrim so`zlarga egalik qo`shimchalari qo`shilishi natijasida tovush tushishi.	<i>Og`iz+im=og`zim, ko`ngil+ing=ko`ngling, bag`ir+i=bag`ri, burun+i=burni, bo`yin+i=bo`yni, qo`yin+i=qo`yni, singil+im=singlim, qorin+i=-qorni, bo`g`iz+i-bo`g`zi, o`g`il+i=o`g`li, o`rin+ing=o`rning, egin+im=egnim, yarim+i=yarmi, shahar+i=shahri, zahar+i=zahri...</i>
Asos+so`z yasovchi	Ayrim so`zlarga so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shilishi natijasida tovush tushishi	<i>Yig`i+la=yig`la, o`yin+a=o`yna, qiyin+a=qiyna, ulug`+ay=ulg`ay, sariq+ay=sarg`ay, qizil+ar=qizar, past+ay=pasay, sust+ay=susay, burur+uq=buyruq, og`iz+aki=og`zaki, ayir+im=ayrim, ingir+a=ingra, ho`ngir+a=ho`ngra, qayir+oq=qayroq, o`rin+a=o`rna,</i>
Fe`l+nisbat qo`shimchasi	<i>Ayir, qayir</i> kabi fe`llarga <i>majhul, o`zlik va birgalik nisbat</i> qo`shimchalari qo`shilishi natijasida tovush tushishi.	<i>Ayir+il=ayril, qayir+qayril, ayir+ish=ayrish.</i>
Kishilik olmoshi+kelishik qo`shimchasi	<i>Men, sen</i> kabi olmoshlarga <i>tushum va qaratqich kelishigi</i> qo`shimchalari qo`shilishi natijasida tovush tushishi.	<i>Men+ni=meni, sen+ning=sening..</i>
Son+lug`aviy shakl yasovchi qo`shimcha	<i>Ikki, yetti, olti</i> kabi sonlarga sonning ma`no turini hosil qiluvchi qo`shimchalar qo`shilishi natijasida tovush tushishi.	<i>Olti+ov=oltov, ikki+ala=ikkala, yetti+ovlon=yettovlon, olti+mish=oltmish, yetti+mish=yetmish...</i>
Eliziya	Unli tovush bilan tugagan so`zga unli bilan boshlanuvshi so`z qo`shilishi natijasida bir unli tovushning tushishi.	<i>Ayta+oldi=aytoldi, Dili+orom=Dilorom, bora+olmadi=borolmadi, yoza+oladi=yozoladi..</i>
Sandxi hodisasi	Fe`llar bilan bog`lamalarning ixchamlashuvi (birikuvi) natijasida tovush tushishi.	<i>Ishlar+edi=ishlardi, brogan+emish=borganmish, Borar+ekan=borarkan,</i>

O'ZBEK ADABIY TILINING BO'LIMLARI

Til o'z ichki tuzilishiga ega. Tilning ana shu ichki tuzilishidan qaysisini o'rganishga ko'ra tilshunoslik fani ham bir necha bo'implarga bo'linadi.

Tilshunoslik (lingvistika) fani bo'limlari		
1.	Fonetika	Og'zaki nutqning tovush tizimini , nutq tovushlarining akustik va fiziologik tomonlarini o'rganuvchi bo'lim.
2.	Fonologiya	Nutq tovushlarining funksional tomonini , ya'ni ma'no farqlash vazifasi (fonema , fonemalar tasnifi , fonemalar o'rtasidagi munosabatlar) ni o'rganuvchi bo'lim.
3.	Grafika	Harflar tizimini o'rganuvchi bo'lim.
4.	Leksikologiya	So'z va uning atash ma'nolarini o'rganuvchi bo'lim.
5.	Leksikografiya	Lug'at va ularning turlari , lug'at tuzish qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
6.	Paremiologiya	Barqaror birikmalar (maqol , metal , hikmatli so'zlar) ni o'rganuvchi bo'lim.
7.	Frezologiya	Iboralarni o'rganuvchi bo'lim.
8.	Onomastika (Nomshunoslik)	Atoqli otlar va nomlash obyektlarini o'rganuvchi bo'lim.
9.	Orfoepiya	To'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi bo'lim.
10.	Orfografika	Imlo qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
11.	Etimologiya	So'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi bo'lim.
12.	Dialektologiya	Tilning she'valari , ularning fonetik , leksik va grammatik xususiyatlarini o'rganuvchi bo'lim.
13.	Morfemika	So'zlarning ma'noli qismlari(asos va qo'shimcha)ni o'rganuvchi bo'lim.
14.	So'z yasalishi	So'z yasash usullarini o'rganuvchi bo'lim.
15.	Morfologiya	So'z turkumlarini , so'zlarning grammatik ma'nosi , grammatik shakl va kategoriyalarini o'rganuvchi bo'lim.
16.	Sintaksis	So'z birikmasi va gaplarning qurilishini o'rganuvchi bo'lim.
17.	Semasiologiya	So'z va gaplarning ko'chma ma'nolarini o'rganuvchi bo'lim.
18.	Punktuatsiya	Tinish belgilari va ularning foydalanish qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
19.	Uslubiyat (Stilistika)	Uslublar , til vositalarini nutqda ishlatish imkoniyatlarini o'rganuvchi bo'lim.
20.	Til tarixi	Tilning fonetikasida , lug'at boyligi va grammatikasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganuvchi bo'lim.

